



LEGAL STATUS OF ORGANIZATIONS FOR COLLECTIVE MANAGEMENT OF COPYRIGHT

Mokhigul Arasheva

Master's student

Tashkent State Law University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: copyright, collective management, legal status, intellectual property, rights management organizations, copyright organizations, legislation, licensing

Received: 25.05.25

Accepted: 27.05.25

Published: 29.05.25

Abstract: This article analyzes the legal status of organizations that collectively manage copyright and related rights, the principles of their operation, and the regulatory and legal framework. In particular, the role of these organizations as legal entities in the Republic of Uzbekistan, their powers, and their role in protecting the interests of authors are highlighted. Also, based on a comparative analysis with the experience of foreign countries, the effectiveness of collective management mechanisms and proposals for their improvement are put forward. The article serves to in-depth study of legal mechanisms in the field of copyright and is aimed at supporting relevant reforms.

MUALLIFLIK HUQUQLARINI JAMOAVIY BOSHQARISH TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI

Moxigul Arasheva

Magistratura talabasi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: mualliflik huquqi, jamoaviy boshqaruv, huquqiy maqom, intellektual mulk, huquqni boshqaruvchi tashkilotlar, mualliflik tashkilotlari, qonunchilik, litsenziyalash

Annotatsiya: Mazkur maqolada mualliflik va turdosh huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi, ularning faoliyat yuritish tamoyillari hamda normativ-huquqiy bazasi tahlil qilinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ushbu tashkilotlarning yuridik shaxs sifatidagi o'rni, vakolatlari, ularning mualliflar manfaatlarini

himoya qilishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil asosida jamoaviy boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Maqola mualliflik huquqlari sohasidagi huquqiy mexanizmlarni chuqur o'rganishga xizmat qiladi va tegishli islohotlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

ПРАВОВОЙ СТАТУС ОРГАНИЗАЦИЙ КОЛЛЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ АВТОРСКИМИ ПРАВАМИ

Мохигуль Арашева

студент магистратуры

Ташкентский государственный юридический университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: авторское право, коллективное управление, правовой статус, интеллектуальная собственность, организации по управлению правами, организации по авторскому праву, законодательство, лицензирование

Аннотация: В статье анализируется правовой статус организаций, осуществляющих коллективное управление авторскими и смежными правами, принципы их деятельности, а также нормативно-правовая база. В частности, освещается роль этих организаций как юридических лиц в Республике Узбекистан, их полномочия, а также их роль в защите интересов авторов. Также на основе сравнительного анализа опыта зарубежных стран выдвинуты предложения по повышению эффективности механизмов коллективного управления. Статья представляет собой углубленное исследование правовых механизмов в сфере авторского права и направлена на поддержку соответствующих реформ.

Bugungi globallashuv va raqamli axborot texnologiyalari davrida intellektual multk, xususan mualliflik huquqlarining himoyasi dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ijodiy faoliyat mahsuli bo'lgan asarlarning ko'plab sohalarda (adabiyot, musiqa, kino, internet va boshqalar) keng tarqalayotgani mualliflarning huquqlarini samarali boshqarish va himoya qilishning yangicha yondashuvlarini talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish tashkilotlari muhim institut sifatida maydonga chiqadi.

Mazkur tashkilotlar mualliflar nomidan ularning huquqlarini boshqarish, asarlardan foydalanish uchun ruxsat berish, foydalanishdan tushgan daromadlarni yig'ish va mualliflarga taqsimlash vazifalarini bajaradi. Bunday tashkilotlarning huquqiy maqomi, ularning yuridik

asoslari, vakolat doiralari va faoliyat yuritish mexanizmlarini aniqlashtirish zamonaviy huquqiy tizim oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mualliflik huquqi intellektual mulkni himoya qilish va turli sohalarda ijodkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydigan muhim huquqiy tushunchadir. Mualliflik huquqi – bu asl asarlarning yaratuvchilariga o‘z ijodlaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish uchun eksklyuziv huquqlarni beradigan qonuniy huquqdir. Ushbu ijod mahsuli qatoriga adabiy asarlar, musiqa, badiiy asarlar, filmlar va hatto dasturiy ta’minotni misol keltirishimiz mumkin. Mualliflik huquqining maqsadi mualliflarga o‘z asarlari ustidan nazoratni cheklangan muddatga berish orqali mualliflikni rag‘batlantirishdir, bu davrda ular o‘z ishlaridan moliyaviy foyda olishlari ham mumkin bo‘ladi.

Mamlakatimizda mualliflik huquqi ya’ni adabiy, san’at va tasviriy san’at asarlariga hurmat qilish darajasi qay darajada deb o‘ylaysiz? Mualliflik asarlaridan muallif yoki boshqa huquq egasining roziligi bilan foydalilanadimi? Afsuski bugungi kunda bu kabi savollarning ko‘pi javobsiz yoki so‘raluvchi shaxs uchun “g‘ayritabiyy” savoldek tuyulishi mumkin. Ha aynan shunday, vaholanki, O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunida muallif yoki huquq egasining mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari doirasi belgilab berilgan. Hattoki, shaxsiy maqsadlarda foydalilaniganlik uchun ham haq to‘lash bilan bog‘liq qoidalar mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1056-moddasiga ko‘ra, muallifga asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlar tegishlidir. Ushbu kodeksga ko‘ra, intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellektual mulk ob’ektidan o‘z xohishiga ko‘ra har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqi tegishli bo‘ladi.

Mualliflik huquqi obyektlari ro‘yxatdan o‘tkazilmasligi nuqtai nazaridan o‘z navbatida mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarga huquq egalikni tasdiqlash va aniqlashitirish bilan bog‘liq hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni 65-moddasiga ko‘ra, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot mulkiy huquqlarini boshqarish shunday tashkilot tomonidan amalga oshirilayotgan shaxslarning buzilgan mualliflik huquqlari va turdosh huquqlarini himoya qilib qonunda belgilangan tartibda o‘z nomidan ariza bilan sudga murojaat etishga haqlidir. Shuningdek, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot o‘z huquqlari qatorida o‘zi boshqarayotgan huquqlarni himoya qilish uchun zarur bo‘ladigan har qanday yuridik harakatlarni bajarish huquqiga ega. Aynan ushbu turdagи tashkilot tomonidan mualliflik huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq holatni quyidagi misol orqali ham ko‘rish mumkin. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar va mualliflar o‘rtasidagi huquqiy

munosabatlar topshiriq shartnomasi xarakteriga ega hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 817-moddasiga ko‘ra, topshiriq shartnomasi bo‘yicha bir taraf (vakil) ikkinchi taraf (topshiriq beruvchi)ning nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Vakil tuzgan bitim bo‘yicha huquq va majburiyatlar bevosita topshiriq beruvchida vujudga keladi. Topshiriq vakil tomonidan bir yoki bir necha muayyan yuridik harakatlarni sodir etish haqida yoki topshiriq beruvchining ishlarini uning ko‘rsatmalariga muvofiq yuritish haqida berilishi mumkinligi belgilangan. Yana shuni qayd etish lozimki, odatda amaliyotda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar ko‘proq muallif va bastakorlar mulkiy huquqlarini himoyachisi sifatida ko‘riladi. Bunga sabab ijrochilarining daromad olish manbalari ko‘pligi, xususan bunda musiqiy “nashriyot”lar alohida o‘rin tutishligi qayd etiladi. Sababi musiqiy “nashriyot”lar asosan ijrochi yoki fonogramma tayyorlovchi yoki ovoz yozuvchi studiyalar bilan ishlaydi hamda daromad mansi sifatida ijtimoy tarmoqlar ko‘rsatiladi (Youtube, Instagram kabi).

Milliy qonunchilik normalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunning 65-moddasiga binoan muallif, turdosh huquqlar egasi yoki mutlaq huquqlarning boshqa egasi huquqbuzardan quyidagilarni talab qilishga haqli:

- 1) huquqlarni tan olishini;
- 2) huquq buzilishidan oldingi holatni tiklashini va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini yuzaga keltiradigan harakatlarni to‘xtatishini;
- 3) huquq egasining huquqi buzilmagan taqdirda, u fuqarolik muomalasining odatdagи sharoitlarida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadi miqdoridagi zararlarning o‘rnini qoplashini. Agar huquqbazar mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlarni buzish oqibatida daromadlar olgan bo‘lsa, huquq egalari boshqa zararlar bilan bir qatorda boy berilgan foydani bunday daromadlardan kam bo‘lmagan miqdorda qoplashini;
- 4) zararlar yetkazilishi faktidan qat’iy nazar, huquqbazarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zararning o‘rnini qoplash evaziga to‘lanishi lozim bo‘lgan tovonni to‘lashini va boshqa choralarini.

Muallif va ijrochi o‘z huquqlari buzilgan taqdirda, huquqbuzardan ma’naviy ziyon qoplanishini sud orqali yoki intellektual mulk agentligiga murojaat qilish yo‘li bilan talab qilishga haqlidir.

Hozirda axborot-kommunikasiya tarmoqlarning tez sur’atlarda rivojlanishi hamda ijtimoiy hayotga jadallik bilan kirib kelishi ijodkorlarni o‘z asarlariga bo‘lgan mutlaq huquqlar muhofazasini yetarli darajada ta’minalash bo‘yicha zarur choralarini ko‘rishga undamoqda. Ma’lumki, so‘nggi yillarda insonning axborot va ma’lumot olishga bo‘lgan ehtiyoji har qachongidan ham yuqori darajaga chiqqan. Ayniqsa, internet va telekommunikasiya

tarmoqlarining keng rivojlanishi natijasida bu bilan bog'liq jarayonlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, bu kabi jarayonlarni mualliflik huquqi ob'ektlarining ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Jahon tajribasida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish 2 xil tizimda tashkil etiladi. Birinchisi raqobat tizimi bo'lib, bunda faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib, turli shu tusdagi tashkilotlar tuzilishiga yo'l qo'yiladi. Ikkinchisi esa monopolistik tizim bo'lib, bunda mamlakatda faqatgina yagona mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot tuzilishi belgilangan. Shandong Universiteti Huquq maktabi tadqiqotchisi Chenyi Zhao AQSh (raqobat tizimi) va Germaniya, Italiya (monopol tizim) davlatlarini ushbu yo'nalishlarga misol sifatida keltirgan.

Shuningdek, ushbu ro'yxatga Yaponiya, Meksika, Norvegiya, Polsha, Shvetsiya, Daniya davlatlarini ham kiritish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ba`zi bir davatlarda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar davlat ko'magida tashkil etilish amaliyoti ham mavjud (Masalan, Rossiya Federatsiyasi). Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bu kabi tashkilotlarni xususiy xarakter yoki davlat muassasi xarakterini kasb etishi mumkinligini bildirgan. Shuningdek, ularning asosiy vakolatlari quyidagi funksiyalar orqali bajarilishini bildirgan: monitoring qilish, muzokaralar o'tkazish, litsenziyalar berish, haq (gonorar)larni yig'ish va taqsimlash.

Mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish tashkilotlari zamonaviy axborot jamiyatida mualliflarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishda muhim o'rinn tutadi. Ular asosan mualliflik va turdosh huquqlarning amaliy boshqaruvi, litsenziyalash, to'lovlarni yig'ish va taqsimlash, shuningdek, huquqiy himoyani amalga oshiruvchi yuridik shaxslar sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu tashkilotlarning huquqiy maqomini belgilash, ularning faoliyatini aniq me'yorlar asosida tartibga solish intellektual mulk sohasidagi tartibotni ta'minlash va mualliflarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida bu yo'nalishda huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda jamoaviy boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish, xalqaro tajribani chuqur o'rganish va qo'llash, shuningdek, mualliflar bilan tashkilotlar o'rtaqidagi huquqiy munosabatlarni yanada mustahkamlash zarurati mavjud. Kelgisida mazkur tashkilotlarning huquqiy maqomini yanada takomillashtirish orqali intellektual mulk himoyasining milliy tizimini rivojlantirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Copyright Industries in the US Economy. [Available at: <https://www.iipa.org/files/uploads/2020/12/2020-IIPA-Report-FINAL-web.pdf>].
2. Collective Management Organisations and competition law [Available at: <https://chambers.com/articles/collective-management-organisations-and-competition-law-2>].

3. S.B.Zyatskiy Problemy realizatsii avtorskix I smeijnix prav na kollektivnoy osnove v usloviyax razvitiya novyx texnologiy. Diss... na soiskaniy uchenoy stepeni k.yu.n. Moskva. 2003 g. [Problems of implementation of copyright and related rights on a collective basis in the context of the development of new technologies]. Diss... for the degree Ph.D. Moscow

4. Юлдашов А. А. Ўзбекистон Республикасининг интеллектуал мулқ, алоқа ва ахборот соҳасидаги норматив-хуқуқийхужжатларда муаллифлик хуқукини муҳофаза қилишга доир нормаларни такомиллаштириш масалалари // Юрист ахборотномаси –Вестник юриста – Lawyer herald. No __ (2022) Б

5. Chenyi Zhao. A Study on the Improvement of Collective Management System of Copyright in the Digital Era. Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 554, p 33-38.

6. Collective Management of Copyright and Related Rights [Available at: <https://www.wipo.int/copyright/ru/management/index.html>].